FUQOROLIK HUQUQIDA SHARTNOMALARNING TARAFLARNING IXTIYORIGA BOG`LIQ BO`LMAGAN HOLDA BEKOR BO`LISH ASOSLARI

Rahimbekova Mohigul Xabibjon qizi
Namangan davlat universiteti
yuridik fakulteti 2 kurs
Hu-24- guruh talabasi
+998932097552
Yvvuguvy@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada fuqarolik huquqida shartnomalarning taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holda bekor bo‘lish asoslari ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil etilgan. Unda majburiyatni bajarishning imkonsizligi, yengib bo‘lmas kuch holatlari, davlat organlari hujjatlari, shartnoma taraflaridan birining vafoti yoki tugatilishi hamda sud qarori asosida shartnomani bekor bo‘lish masalalari Fuqarolik kodeksi normalari asosida yoritib berilgan. Shuningdek, shartnoma bekor bo‘lishining huquqiy oqibatlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *shartnoma, majburiyat, shartnomani bekor bo‘lishi, fors-major, majburiyatni bajarishning imkonsizligi, sud qarori.*

Annotation: *This article analyzes the scientific and legal grounds for the termination of contracts in civil law, regardless of the will of the parties. It covers the impossibility of fulfilling an obligation, force majeure, acts of state bodies, the death or liquidation of one of the parties to the contract, and the termination of a contract based on a court decision, based on the norms of the Civil Code. It also reveals the legal consequences of the termination of a contract.*

Keywords: *contract, obligation, termination of a contract, force majeure, impossibility of fulfilling an obligation, court decision*

Аннотация: *В данной статье анализируются научно-правовые основания для расторжения договоров в гражданском праве, независимо от воли сторон. Рассматриваются такие обстоятельства, как невозможность исполнения обязательства, форс-мажор, действия государственных органов, смерть или ликвидация одной из сторон договора, а также расторжение договора по решению суда на основании норм Гражданского кодекса. Также раскрываются правовые последствия расторжения договора.*

Ключевые слова: *договор, обязательство, расторжение договора, форс-мажор, невозможность исполнения обязательства, решение суда.*

Kirish

Fuqarolik huquqida shartnoma instituti mulkiy va nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy vositalardan biri hisoblanadi. Shartnoma, odatda, taraflarning erkin xohish-irodasiga asoslanib tuziladi va shartnoma erkinligi tamoyili fuqarolik huquqining fundamental prinsipi sifatida e’tirof etiladi. Biroq mazkur tamoyil mutlaq xususiyatga ega bo‘lmay, u qonun hujjatlari bilan muayyan chegaralarga ega. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki,

ayrim holatlarda shartnomalar taraflarning xohishiga bog‘liq bo‘lmagan holda bekor bo‘lishi mumkin. Bunday holatlar shartnoma munosabatlarida qonun ustuvorligini ta’minlash, jamoat manfaatlarini himoya qilish hamda huquqiy barqarorlikni saqlash zaruratidan kelib chiqadi. Ayniqsa, shartnomaning qonunga xilofligi, majburiyatni bajarishning ob’ektiv imkonsizligi, yengib bo‘lmas kuch holatlari, davlat organlarining majburiy hujjatlari hamda sud qarorlari shartnomalarning taraflar ixtiyorisiz bekor bo‘lishiga olib keluvchi muhim huquqiy asoslar sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, shartnomalarning taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holda bekor bo‘lishi shartnoma erkinligi tamoyili bilan qonuniy cheklovlar o‘rtasidagi muvozanatni aniqlashni talab etadi. Shu bois ushbu institutning huquqiy tabiati, asoslari va amaliy ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish fuqarolik huquqi nazariyasi va huquqni qo‘llash amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik huquqiy shartnomalarni tartibga soluvchi manbalar tizimi quyidagilardan iborat: O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; Ozbekiston Respublikasi Fuqorolik Kodeksi, boshqa qonunlar va qonun huijatlarida nazarda tutilgan hollarda va doirada shartnoma munosabatlarini tartibga soluvchi hujjatlar; Qonunda nazarda tutilgan namunaviy shartnomalar va boshqa bitimlar; Qonunda shartnoma taraflarining huquq va burchlari vujudga kelishining asoši sifatida nazarda tutilgan davlat yoki fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlarining organlari hujatlari: shartnomalarga huquqiy fuqarolik Sudning hujjatlari; Fuqarolik qonun hujatlarida tegishli ormalar bo‘Imagan taqdirda, ish muomalasi odatlari, mahalliy odat va an’analar (tegishli shartnoma taraflari uchun majburiy bo‘lgan qonun hujjatlari normalariga yoki shartnomaga zid bo‘lgan ish muomalasi odatlari, mahalliy odat va an’analar qo‘llanilmaydi); Xalqaro shartnomalar va bitimlardan iborat. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 353-moddasiga ko`ra ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi. Ozbekiston Respublikasi Fuqorolik Kodeksining 382-moddasiga muvofiq shartnomani o‘zgartirish va bekor qilish asoslari quydagicha belgilangan. Agar ushbu kodeksda, boshqa qonunlarda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq o‘zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin. Taraflardan birining talabi bilan shartnoma sud tomonidan faqat quyidagi hollarda o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin:

1) ikkinchi taraf shartnomani jiddiy ravishda buzsa;

2) ushbu Kodeks, boshqa qonunlar va shartnomada nazarda tutilgan o‘zga hollarda.

Taraflardan birining shartnomani buzishi ikkinchi tarafga u shartnoma tuzishda umid qilishga haqli bo‘lgan narsadan ko‘p darajada mahrum bo‘ladigan qilib zarar yetkazishi shartnomani jiddiy buzish hisoblanadi. Bir taraf shartnomani bajarishdan to‘la yoki qisman bosh tortib, qonun yohud taraflarning kelishuvida bunga yo‘l qo‘yilsa, shartnoma tegishlicha bekor qilingan yoki o‘zgartirilgan hisoblanadi. Agar taraflar shartnomani jiddiy o‘zgargan vaziyatga muvofiqlashtirish yoki uni bekor qilish haqida kelisha olmagan bo‘lsalar, shartnoma manfaatdor tarafning talabi bilan sud tomonidan bekor qilinadi. Shartnoma o‘zgartirilganida taraflarning majburiyatlari o‘zgartirilgan holda saqlanib qoladi. Shartnoma bekor qilinganida taraflarning majburiyatlari bekor bo‘ladi. Shartnoma o‘zgartirilgan yoki bekor qilingan taqdirda, agar kelishuvdan yoki shartnomani o‘zgartirish xususiyatidan

boshqacha tartib anglashilmasa, taraflar shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilishga kelishgan paytdan boshlab, shartnoma sud tartibida o‘zgartirilgan yoki bekor qilinganida esa — sudning shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi qarori qonuniy kuchga kirgan paytdan boshlab majburiyatlar o‘zgartirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi. Agar qonunda yoki taraflarning kelishuvida boshqacha tartib belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, taraflar shartnoma o‘zgartirilguncha yoki bekor qilinguncha majburiyat bo‘yicha o‘zlari bajargan narsalarni qaytarib berishni talab qilishga haqli emaslar. Agar shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilishga taraflardan birining shartnomani jiddiy buzishi asos bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi taraf shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish tufayli yetkazilgan zararni to‘lashni talab qilishga haqli ekanliklari begilangan. Shartnoma, doim taraflarning erkin xohish-irodasiga asoslanib tuziladi va shartnoma erkinligi tamoyili fuqarolik huquqining fundamental prinsipi sifatida e’tirof etiladi. Biroq mazkur tamoyil mutlaq xususiyatga ega bo‘lmay, u qonun hujjatlari bilan muayyan chegaralarga ega. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ayrim holatlarda shartnomalar taraflarning xohishiga bog‘liq bo‘lmagan holda bekor bo‘lishi mumkin. Bunday holatlar shartnoma munosabatlarida qonun ustuvorligini ta’minlash, jamoat manfaatlarini himoya qilish hamda huquqiy barqarorlikni saqlash zaruratidan kelib chiqadi. Ayniqsa, shartnomaning qonunga xilofligi, majburiyatni bajarishning ob’ektiv imkonsizligi, yengib bo‘lmas kuch holatlari, davlat organlarining majburiy hujjatlari hamda sud qarorlari shartnomalarning taraflar ixtiyorisiz bekor bo‘lishiga olib keluvchi muhim huquqiy asoslar sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, shartnomalarning taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holda bekor bo‘lishi shartnoma erkinligi tamoyili bilan qonuniy cheklovlar o‘rtasidagi muvozanatni aniqlashni talab etadi. Shu bois ushbu institutning huquqiy tabiati, asoslari va amaliy ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish fuqarolik huquqi nazariyasi va huquqni qo‘llash amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shartnoma tuzilgan paytidan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo‘lib qoladi. Taraflar o‘zlari tuzgan shartnomaning shartlarini ularning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga nisbatan qo‘llaniladi deb belgilab qo‘yishga haqlidirlar. Qonunda yoki shartnomada shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarning shartnoma bo‘yicha majburiyatlari bekor bo‘lishiga olib keladi, deb belgilanishi mumkin. Bunday shart yozib qo‘yilmagan shartnoma taraflar majburiyatni bajarishining shartnomada belgilab qo‘yilgan oxirgi muddatigacha amal qiladi, deb hisoblanadi. Shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi. Shartnomani taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holda bekor bo‘lishi deganda shartnomani taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holda bekor bo‘lishi deganda, shartnoma taraflarining xohishiga qaramasdan, qonun hujjatlari yoki ob’yektiv holatlar ta’sirida shartnoma majburiyatlarining tugatilishi tushuniladi. Bu holatda shartnoma bekor qilinishi taraflarning aybi bilan emas, balki ularning nazoratidan tashqaridagi sabablar bilan bog‘liq bo‘ladi. Fuqarolik huquqida shartnomalarning taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holda bekor bo‘lishi (majburiyatning tugashi) asosan qonunchilikda belgilangan obyektiv holatlar, ya’ni taraflarning xohishidan qat’i nazar yuzaga keladigan vaziyatlar bilan bog‘liqdir. Shartnoma taraflarning erkin xohish-irodasiga asoslanib tuzilsa-da, uning amal qilishi doimo taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lavermaydi. Ayrim ob’yektiv holatlar mavjud bo‘lib, ular shartnomaning taraflar

roziligisiz bekor bo‘lishiga olib keladi. Ushbu holatlar fuqarolik muomalasining barqarorligi va adolat prinsiplarini ta’minlash nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Bularga quyidagilar kiradi: Majburiyatni ijro etishning yuridik yoki jismoniy jihatdan imkonsiz bo‘lib qolishi (masalan, shartnoma predmeti bo‘lgan mol-mulkning nobud bo‘lishi). Davlat organining hujjati: Davlat organi tomonidan chiqarilgan hujjat natijasida majburiyatning bajarilishi imkonsiz bo‘lsa, shartnoma bekor bo‘ladi. Shaxsga doir majburiyatlarda taraflardan birining vafot etishi yoki yuridik shaxsning tugatilishi. Shartnomada belgilangan muddatning yakunlanishi, yengib bo‘lmas kuch (fors-major) holatlari bo`lishi mumkin. Ushbu holatlar yuzaga kelganda, taraflar kelishuviga ehtiyoj qolmaydi va shartnoma o‘z-o‘zidan o‘z kuchini yo‘qotadi. O‘zbekistonda biznes «fors-major» rejimiga o‘tgan. Fors-major – bu tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog‘liq bo‘lmagan tabiat hodisalari yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tashqi savdo bitimlari va xalqaro shartnomalar bo‘yicha tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlar tushuniladi. Umuman olganda, tomonlardan birida yengib bo‘lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari yuzaga kelgan taqdirda, tomonlar o‘zaro manfaatli shartlar bilan kelishib olishga harakat qilishlari mumkin (masalan, shartnoma majburiyatlarini o‘zgartirish orqali majburiyatlarni bajarish muddatini uzaytirish). Agar tomonlardan biri kelishuvga erisha olmasa, yengib bo‘lmaydigan kuchlar holatini tasdiqlaydigan sertifikatni olish uchun Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga murojaat qilishi mumkin. Sud tomonidan shartnomaning haqiqiy emas deb topilishi yoki uni davom ettirish mumkin emasligi to‘g‘risida qaror qabul qilinishi ham taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holat hisoblanadi. Sud quyidagi asoslar mavjud bo‘lganda shartnomani bekor qiladi: aldov, zo‘ravonlik yoki tahdid ostida tuzilganda; muomala layoqati cheklangan shaxs ishtirok etganda; shartnoma jamoat manfaatlariga zid bo‘lganda. Sud qarori kuchga kirgan paytdan boshlab shartnoma o‘z yuridik kuchini yo‘qotadi.

Xulosa

Fuqorolik huquqida shartnomalarning taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holda bekor bo‘lishi instituti xususiy huquq munosabatlarida barqarorlik va adolat muvozanatini ta’minlashga qaratilgan muhim huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu institut shartnoma erkinligi tamoyilini mutlaq deb e’tirof etmasdan, uni ijtimoiy manfaatlar, qonun ustuvorligi hamda huquqiy xavfsizlik prinsiplari bilan uyg‘unlashtirish zaruratidan kelib chiqadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, shartnomaning taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holda bekor bo‘lishi, asosan, huquqiy faktlar majmui ya’ni, majburiyatni bajarishning ob’ektiv imkonsizligi, normativ-huquqiy hujjatlarning o‘zgarishi yoki bekor qilinishi, sud qarori, favqulodda va yengib bo‘lmas kuch (fors-major), shuningdek, taraflardan birining huquqiy maqomining o‘zgarishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur holatlarda shartnoma subyektlarining irodasi ikkinchi darajali ahamiyat kasb etib, huquqiy oqibatlarning yuzaga kelishi bevosita qonun yoki vakolatli organ hujjatlariga asoslanadi. Shartnomalarning bunday tartibda bekor bo‘lishi, bir tomondan, majburiyatlar ijrosining real va huquqiy imkoniyatlariga moslashuvchanlikni ta’minlasa, ikkinchi tomondan, shartnoma munosabatlarida ishtirok etuvchi taraflarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga xizmat

qiladi. Ayniqsa, davlat organlarining hujjatlari yoki sud qarorlari asosida shartnomalarning bekor qilinishi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning ommaviy-huquqiy tartibga solish bilan uzviy aloqadorligini yaqqol namoyon etadi. Shartnomalarning taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holda bekor bo‘lishi asoslari tushunchasini normativ-huquqiy jihatdan aniq belgilash; taraflar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash; sud va ijro amaliyotida yagona yondashuvni joriy etish; xorijiy tajribani hisobga olgan holda qiyosiy-huquqiy normalarni ishlab chiqish zarur. Bu chora-tadbirlar shartnoma munosabatlarining barqarorligi, taraflar manfaatlarining himoyasi va huquqiy muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi fuqorolik kodeksi https://lex.uz/docs/111189
2. Shartnoma huquqi.2022.pdf https://drive.google.com/file/d/1SHTNqkcAUNaO8iSeVbPQGJLAI9fIHhhq/view
3.https//:api.unilibrary.uz
4. https://kun.uz
5. https://srsl.uz/Fuqarolik huquqi pdf
6. ФК_шарх_1 (1).pdf https://drive.google.com/file/d/12JpyyTNNXtdjLJx4HJ6-xmWuKgZukrRd/view